| Салиева Екатерина Сергеевна                                                                                                                          |     |
| Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....                                                          | 427 |
| Татьяна Будей                                                                                                                                        |     |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari .....                                                       | 431 |
| Khusanov Nodirbek Djumanazarovich                                                                                                                    |     |
| Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari..... | 437 |
| Daliyev Xusan Xojakbarovich                                                                                                                          |     |
| Macroeconomic factors in the development of the banking performance .....                                                                            | 442 |
| Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov                                                                                 |     |
| Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....                                                                    | 449 |
| Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li                                                                                                                |     |
| Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO .....                              | 453 |
| Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev                                                                                           |     |
| Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....                                                  | 458 |
| Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich                                                                                                                   |     |
| Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....                                                                    | 468 |
| Davletov Po'lat Torabayevich                                                                                                                         |     |
| Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni .....                                                                      | 476 |
| Karimova Muqaddas Zabixullayevna                                                                                                                     |     |
| Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику.....           | 479 |
| Раматов Зафарбек Жуманиязович                                                                                                                        |     |





|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni.....                                       | 482 |
| Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li                                                                                                                 |     |
| Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari .....                                                                              | 486 |
| Abdulxayeva Shahnoza Muhammadiyevna                                                                                                            |     |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....                                                | 492 |
| Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich                                                                                                            |     |
| Topical issues of analytical support for financial resources management of business entities in modern conditions .....                        | 498 |
| Jiyanova Nargiza Esanboyevna                                                                                                                   |     |
| Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег .....                                                                    | 506 |
| Якубова Шамшинур Шухратовна                                                                                                                    |     |
| Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....                                                | 513 |
| Гафурова Азизахон Фатиховна                                                                                                                    |     |
| Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....                                                                                       | 517 |
| Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna                                                                                |     |
| Ta'limda innovatsion tadbirkorlikning tarixiy rivojlanishini asosiy bosqichlari.....                                                           | 522 |
| Madaminova Xusnidaxon Shuxratovna                                                                                                              |     |
| Integratsiya jarayonida bog'dorchilikda klasterlarni barpo qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri ..... | 526 |
| Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich                                                                                                                |     |
| Banklarning moliyaviy xavfsizligi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....                                                                 | 532 |
| Mamatov Mamajan Axmadjonovich                                                                                                                  |     |
| Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash jarayonini ekonometrik modellash.....                        | 535 |
| Turgunov Odilbek Maripovich                                                                                                                    |     |
| Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash .....                                                      | 542 |
| Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich                                                                                                            |     |
| The unique characteristics of governance systems in various countries: a comparative analysis.....                                             | 549 |
| Bozorboev Otamurod Nurmuxammad ugli, Denny Andriana, Usmanov Bunyod                                                                            |     |
| GREEN ECONOMY AND GREEN CHEMISTRY: principles, priorities, advantages and it's impact to the future.....                                       | 553 |
| Fozilova Firangiza Komilovna, Zokirova Ferangiz Zafarovna                                                                                      |     |
| Kichik biznesda yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.....                                        | 557 |
| Karimova Mavjuda Boxodirovna                                                                                                                   |     |
| Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....              | 562 |
| Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li                                                                                                           |     |
| Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorligining iqtisodiy negizi tushunchasi va xususiyati.....                                          | 568 |
| Shukurova Sultana Said Sultanovna                                                                                                              |     |
| Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarining hozirgi holati va tendensiyasi.....                                          | 572 |
| Hayitova Nigora Ilxomovna                                                                                                                      |     |



# TASHQI SAVDO VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYASI

**Hayitova Nigora Ilxomovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiy statistika kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning hozirgi holati va tendensiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekiston va jahon iqtisodiyoti misolida tashqi savdo siyosatining milliy iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida tashqi savdoning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini aniqlash bilan birga ushbu aloqalarning murakkabligi va ularni samarali boshqarishning dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi savdo, iqtisodiy o'sish, eksport siyosati, import tartibga solish, milliy iqtisodiyot, xalqaro iqtisodiy tendensiyalar, O'zbekiston iqtisodiyoti, tashqi savdo siyosati.

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of the current state and trends of the relationship between foreign trade and economic growth. The article examines the impact of foreign trade policy on national economic growth on the example of Uzbekistan and the world economy. Based on scientific research and statistical data, along with determining the positive impact of foreign trade on economic growth, the complexity of these relations and the urgency of their effective management have been shown.

**Key words:** foreign trade, economic growth, export policy, import regulation, national economy, international economic trends, economy of Uzbekistan, foreign trade policy.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу современного состояния и тенденций взаимосвязи внешней торговли и экономического роста. В статье рассматривается влияние внешнеторговой политики на экономический рост страны на примере Узбекистана и мировой экономики. На основе научных исследований и статистических данных, наряду с определением положительного влияния внешней торговли на экономический рост, показана сложность этих отношений и актуальность их эффективного управления.

**Ключевые слова:** внешняя торговля, экономический рост, экспортная политика, регулирование импорта, национальная экономика, международные экономические тенденции, экономика Узбекистана, внешнеторговая политика.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi iqtisodiy aloqalarni va integratsiyalashuvni mintaqa miqyosida faollashtirishni talab etadi. Bu vaziyatning yuzaga chiqishida ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Lekin ko'pgina jarayonlar kabi tashqi savdo aloqalari ham iqtisodiy manfaat va sabablar jarayonlarining ustuvor omili bo'lib, qolganlari ularga ko'makchi xususiyatiga ega. Zero, har qanday iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiy yuksalish va milliy farovonlikni oshirishdan iborat. Shulardan biri bu tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va jahon bozoriga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish ham aynan iqtisodiy taraqqiyotni ko'zda tutadi. Shu bois mintaqaviy miqyosda mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni erkinlashtiruvchi tizim tashkil etiladi va savdo-iqtisodiy aloqalar kengaytiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston olimlari tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilishda mahalliy sharoit va iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, Karimov A. o'z tadqiqotida tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini iqtisodiy siyosat va strukturaviy o'zgarishlar orqali o'rgangan. U, xususan, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish va importni maqbullashtirish bo'yicha qator takliflar bergan. Shuningdek, Rustamov M. va Islomov F. kabi olimlar O'zbekistonning tashqi savdo siyosati va iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilib, eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.



Xorij mamlakatlarining olimlari tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda xalqaro tajriba va makroiqtisodiy omillarni inobatga olgan. Kudrov V.M. o'z asarlarida Rossiyaning tashqi savdo siyosati va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini, jumladan, jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tahlil qilgan.

Ivanov S.P. esa iqtisodiy o'sish va tashqi savdo o'rtasidagi dinamik o'zgarishlarni va ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini o'rganib, xalqaro savdo bitimlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatgan.

Aksariyat olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalar kompleks va ko'p qirrali bo'lib, ular milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro iqtisodiy tendensiyalar va hukumat siyosatining ta'siri ostida shakllanadi. Shuningdek, ushbu olimlarning ilmiy ishlari tashqi savdo faoliyatini samarali boshqarish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning hozirgi holati va tendensiyasini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda mamlakatimiz geografik va madaniy-ijtimoiy shart-sharoitlar hamda iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqib, qator mamlakatlar va mintaqaviy integratsiya doirasidagi milliy bozorlar bilan iqtisodiy munosabatlar jarayonlarini tashkil qilib, tashqi bozordagi faoliyatini rivojlantirishda davom etmoqda. Milliy iqtisodiyotlar va mintaqaviy bozorlar bilan integratsiya bo'lishi, uning ko'lami va ishtirok etayotgan mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv jarayoni chuqurlashib borayotgan sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan islohotlar va ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan takomillashtirish tadbirlari o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga rag'bat hosil qilmoqda. Mazkur tendensiya milliy iqtisodiyotlarni tarkibiy jihatdan takomillashuviga va modernizatsiya bo'lishiga ta'sir ko'rsatish orqali tashqi savdoda tovar va xizmatlar hajmining kengayishiga olib keladi. Natijada tovar va xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi va talab hajmining yuksalishi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, bu mintaqada mamlakatlarida ayrim xomashyo va investitsiya tovarlarining ta'minoti ham tashqi iqtisodiy aloqalarning faollashuvini kuchaytiradi. Bu shart-sharoitlar tashqi savdo va mintaqada mamlakatlari iqtisodiyotlarining o'zaro aloqalarining ustuvor ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bois mamlakatimizning yaqin qo'shni va mintaqada mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini va o'sish tendensiyasini tadqiq etish talab etiladi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida 345 trln. so'mlik sanoat tovarlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sish ko'rsatkichi 5,7 foizni tashkil etgan (o'tgan yilning mos davrida sanoat tovarlarining o'sish surati 5,5 foizni tashkil etgan edi).

Joriy yilning yetti oyida qurilish sohasida 80,5 trln. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilgan. Sohaning o'sish surati 4,8 foizni tashkil etib, 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasidagi faollik biroz pasayganligini kuzatish mumkin. Xususan,

2022-yilning mos davrida qurilish sohasida o'sish 6,4 foizni tashkil etgan edi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo aylanmasi

156,4 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan

7,1 foizga o'sgan. Chakana savdo aylanmasi sog'lom suratlarda o'sayotgan bo'lishiga qaramasdan, o'sish surati 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda biroz sekinlashgan (2022-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo aylanmasining o'sish surati 11,2 foizni tashkil etgan) edi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi joriy yilning yetti oyida

250,1 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan

12,4 foizga o'sgan. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta ulushi moliyaviy, transport hamda savdo xizmatlariga to'g'ri kelib, bu xizmatlarning hajmi mos ravishda 58,2 trln so'm, 57,6 trln so'm hamda 59,2 trln so'mni tashkil etgan.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligiga erishgach turli sohalarda kechayotgan hamkorlik, do'stlik, tarixiy birdamlikka intilishdan tashqari tarix sohasida munozara, muhokama, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham tez-tez sodir bo'lmoqda. Xususan, mintaqadagi xalqlarning etnik tarixini o'rganishga bo'lgan ilmiy tadqiqotlar,



qarashlar, fikrlar ba'zida tarix sahifalarida noo'rin ishlatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "... Tarix xotirasi, ...milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi".[1] Shunday ekan, o'z tariximizni teran anglab yetish o'zligimizni bilishga qaratilgan asosiy yechimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2016-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4907-son<sup>1</sup> Farmoni, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirish muhimligi alohida qayd etildi.

Import o'rnini bosish siyosatining asosiy xususiyati importni chegaralash va diskriminatsiya qilish yordamida iqtisodiyotni sanoatlashtirish hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, import o'rnini bosish siyosatini olib borish ichki bozorda raqobatga bardoshligini ta'minlash maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilar rivojlanishi uchun sun'iy rag'batlar (tashqi savdo va valyuta) yaratishni nazarda tutadi. Shu bilan birgalikda, yengil sanoat, umuman, respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini yanada oshirishda import o'rnini bosish siyosatini emas, balki eksportga yo'naltirilganlik siyosatini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eksportga yo'naltirilgan siyosatning maqsadi ham iqtisodiyotni sanoatlashtirish hisoblanadi. Ammo unga tashqi savdo cheklanishlari va import diskriminatsiyasi yordamida mahalliy ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish orqali emas, balki iqtisodiyotning ochiqligi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi va mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish orqali erishiladi.<sup>2</sup>

Mamlakatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini belgilashda hal qiluvchi o'rinlardan birini egallab kelayotgan yengil sanoat tarmog'i keyingi yillarda bu borada o'z mavqeini, ma'lum, ma'noda, sanoatning boshqa tarmoqlariga bo'shatib bermoqda. Asrimiz boshida unda mamlakatimiz sanoat mahsulotlarining 1/5 qismi yaratilgan bo'lsa, oradan o'n yildan sal ko'proq vaqt o'tib bu ko'rsatkichning darajasi 1/7ga teng bo'lib qolmoqda. Bu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasida yengil sanoatning hisssasi shu davr oralig'ida deyarli 30,0%ga pasaydi.

Albatta, mamlakatimiz sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini belgilashda keyingi yillarda mashinasozlik va yoqilg'i sanoat tarmoqlari ulushining ortganligini ijobiy baholash lozim. Lekin bu, fikrimizcha, yengil sanoat tarmog'i ulushining pasayishi hisobiga amalga oshirilishi kerak emas. Shuningdek, bir paytning o'zida elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari va oziq-ovqat kabi sanoat tarmoqlari bu jarayonda o'z mavqelarini saqlab qolgan bir paytda bu narsa yengil sanoat miqyosida uddalanmaganligi unchalik tushunarli bo'lmaganligi uchun juda ko'plab savollarni kun tartibiga qo'yadiki, ularga asosli tarzda atroflicha javob berish lozim. Chunki mamlakatimiz sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasida yengil sanoatning hisssasi 2001–2009-yillar oralig'ida muttasil ravishda pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu ko'rsatkichning darajasi 20,0%dan 12,1%gacha pasaygan (pasayish sur'ati deyarli 40,0%) bo'lsa, 2010 yildan boshlab vaziyat teskari tomonga o'zgara boshladi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasida yengil sanoatning hisssasi 2009-yilda 12,1%ni tashkil etgan bo'lsa, uning 2010 yildagi darajasi – 13,1%ga, 2011 yilda – 13,4%ga, 2013 yilda – 13,9%ga, 2014-yilda - 15,5%ga, 2015-yilda – 15,6 %ga va 2016 yilda esa 15,7 %ga teng bo'ldi.

Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, yaqin kelajakda va istiqbolda yengil sanoat tarmog'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasida o'z mavqeini qayta tiklab olishi sari yo'l tutilganligi, shubhasiz. Bunday sharoitda mamlakatimiz yengil sanoati taraqqiyotining, jumladan, moliyaviy jihatlarini tadqiq etish, bu yerda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berish o'ta dolzarblik kasb etishini yana bir marta qayd etib o'tish joiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotdagi, mamlakat qonunchilik sohasidagi va tashqi iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Vujudga kelgan yuqoridagi vaziyatni ijobiy tomonga faqat innovatsion faoliyatni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini yangi texnik-texnologik darajaga ko'tarish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hajmini yillar bo'yicha barqaror o'sishini ta'minlaydigan qulay sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan maxsus choralar dasturini zudlik bilan ishlab chiqish, muhokama etib qabul qilish va uni hayotga tatbiq etib o'zgartirish mumkin xolos. Bu jarayonda ularning moliyaviy jihatlariga hamda kadrlar masalasiga jiddiy e'tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3089607>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. //Халқ сўзи, 08.02.2017 й. №28 (6722).



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alfred Marshall. Principles of Economics. 8 th edition. – Macmillan and Co.Ltd. 1920. <http://www.Econlib.org/library/Marshall/marpcontents.htm>.
2. Karimov A. (2020). O'zbekistonning tashqi savdo siyosati va iqtisodiy o'sish. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya.
3. Rustamov M. & Islomov F. (2019). Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish: O'zbekiston tajribasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Кудров В. М.. (2019). "Влияние внешней торговли на экономическое развитие России". Журнал "Экономика и управление", 6(3), 88-95.
5. Иванов С.П. (2017). "Международная торговля и экономический рост: российский контекст". Москва: Издательство МГУ.
6. Багиев Г.Л., Моисеева Н.К., Никифорова С.В. Международный маркетинг. – СПб.: Питер, 2001.
7. Сирожиддинов Ж. Проблемы повышения эффективности внешней торговли. Узбекистана. – Т.: Университет Мировой экономики и дипломатии, 2004.
8. "Ўзбекенгилсаноат" АЖнинг 2014-2016 йиллар ҳисобот материаллари. 10. Uzbekistan textile (2016-2017) №08. с.4-6.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. "Халқ сўзи" газетаси. 2017 йил, 21 апрел, № 79 (6773).
10. Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида Т.: ЎзФАН 1941. 5-бет.
11. Толлстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. Тезисы докладов // Советская этнография. М., 1947. №.VI – VII. С.303.
12. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: "Шарқ", 2001.
13. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент. "Ўзбекистон". 2015. 670-бет.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

